

6. Patel, S., & Mehta, P. (2021). Digital tourism and technology-driven innovations in India. *Tourism and Hospitality Research*, 21(2), 210-225.
<https://doi.org/10.1177/1467358419876037>
7. Sharma, R., & Ranjan, S. (2020). Sustainable tourism practices: A case study of India's tourism policy. *Journal of Sustainable Tourism*, 28(9), 1467-1484.
<https://doi.org/10.1080/09669582.2020.1817223>
8. Singh, M., & Mishra, A. (2019). Tourism infrastructure and economic development in India. *International Journal of Tourism Research*, 25(6), 798-810.
<https://doi.org/10.1002/jtr.2273>
9. Tripathi, S. (2022). Urban planning and transportation development in Indian cities. In A. Verma (Ed.), *Innovative approaches in urban planning* (pp. 67-92). Routledge India.
10. World Bank. (2021). India urbanization review: Reassessing the urbanization agenda. The World Bank. <https://www.worldbank.org/en/country/india/publication/india-urbanization-review>

MILLIY TURIZMNI BOSHQARISHNING TASHKILIY MEKANIZMINING TAMOIYILLARI

Dehqonov Burxon Rustamovich

TDIU "Turizm va mehmonxona biznesi" kafedrası dotsenti,

E-mail: b.dehqonov@tseu.uz

Annotatsiya: Tadqiqot O'zbekistonda xalqaro turizm, ichki va milliy turizmni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Turizmni boshqarishda muvaffaqiyatli tajribalarni o'rganib ilmiy yechimlar ishlab chiqish, davlatni roli va ishlab chiqilgan xujjatlarni turizm biznesi sub'ektlari faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'zini o'zi boshqarish organlarining turizmni rivojlantirishda hamkorligi, ularning vazifalari qatoriga turizmni rivojlantirishda yo'l xaritasini ishlab chiqishni ilmiy yechimlarini nazariy asoslari berilgan. Ichki turizmni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tarmoq shaklga ega. Bu mavzuda turli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, ushbu ob'ekt yaxlitligicha yetarli chuqur o'rganilmagan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, turizm, xizmat ko'rsatish, boshqaruv tizimi, tadqiqotlar.

Kirish: O'zbekiston haqiqiy tajribalar izlayotgan sayohatchilar uchun ajoyib jozibaga ega. So'nggi yillarda mamlakat turizm sanoatining ulkan salohiyatini iqtisodiy o'sish va madaniy almashinuv katalizatori sifatida tan oldi. Bu salohiyatdan to'liq foydalanish uchun mamlakatimizda sayyohlik xizmatlarini ko'rsatishni kuchaytirish zarur. Mazkur tadqiqot o'zining sayyohlik xizmatlarini ko'tarib, ularni butun dunyo bo'ylab tashrif buyuruvchilar uchun yanada jozibador, qulay va boyitish yo'llarini tadqiq qilishni maqsad qilgan. Hududlarda infratuzilmani rivojlantirish, madaniyatni saqlash, mehmondo'stlikni o'rgatish, raqamli innovatsiyalar va barqaror amaliyotlar kabi jihatlarni ko'rib chiqadigan ushbu tadqiqot keng qamrovli strategiyalarni belgilashga qaratilgan. Mazkur innovatsiyalar orqali O'zbekiston nafaqat sayohatchilarning qoniqishini ta'minlabgina qolmay, balki tashrif buyuruvchilar va mahalliy hamjamiyatlarga foyda keltiradigan barqaror turizm sanoatiga yo'l ochadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlantirishga qaratilgan islohotlar doirasida turizm sohasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida "Ichki turizm salohiyatini targ'ib qilish orqali 2026-yilda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini

12 million nafardan oshirish”⁴ maqsadi doirasida vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi “ichki turizm” tushunchasining iqtisodiy mazmunini hamda ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini “mahalla yettiligi” boshqaruvi vakolat va majburiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish, axborotning nosimmetrik ta’sir oqibatlari natijasida sayohatchilarning mamlakatning turli turistik maskanlariga tashrifi jarayonlaridagi vujudga keluvchi noqulay holatlarni oldini olish va tartibga solish orqali ichki turizmning rivojlanishini rag’batlantirish, O’zbekistonda ichki turizmning o’sishiga va daromadligiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida uzoq muddatli istiqboldagi prognoz ko’rsatkichlarini ishlab chiqishga yo’naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ahamiyati dolzarb hisoblanadi.

Milliy turizm ham madaniyatlararo almashinuv imkoniyatini beradi. Dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyuruvchilar mahalliy aholi bilan muloqot qilish, ularning urf-odatlarini o’rganish va ularning turmush tarzi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo’lishadi. Bu almashinuv nafaqat istiqbollarni kengaytiradi, balki turli madaniyatlar o’rtasida o’zaro tushunish va hurmatni kuchaytiradi.

Turizmda tashkiliy-iqtisodiy mexanizm iqtisodiy jarayonlarning normal borishiga, iqtisodiy tizim va uning ob’yektlari barqaror faoliyatda bo’lishini qo’llab-quvvatlashga, turizm faoliyatini yanada rivojlanishiga, uzilishlarning, qonunlar, normativ ko’rsatmalar, shartnomalar buzilishlarining oldini olishga ko’maklashadigan sharoitlar yaratish choralari va vositalarining yig’indisi hisoblanadi.

Quyidagi besh jihat misol bo’la oladi:

qonun jihatidan ta’minlash (turistik faoliyatning normal borishiga ko’maklashadigan qonunlar ishlab chiqish);

infratuzilma jihatidan ta’minlash (tarixiy-madaniy turizmni tashkil etish uchun umumiy sharoitlarni yaratuvchi va ta’minlovchi moddiy- texnik elementlarning mavjud bo’lishi);

moliyaviy ta’minlash (investisiya manbalarini aniqlash va madaniy turizm sohasida qulay investisiya iqlimini yaratish);

axborot ta’minoti (madaniy turizmni tashkil etish va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda turistlarni axborot bilan ta’minlash);

kadrlar bilan ta’minlash (sifatli turistik xizmatlar ko’rsatishga layoqatli bo’lgan malakali oliy, o’rta va quyi bo’g’in xodimlarini o’z vaqtida va doimiy tayyorlash hamda qayta tayyorlash).

Bundan tashqari, milliy turizm barqaror iqtisodiyotni rag’batlantiradi. Ko’pgina yo’nalishlar hali ham tashrif buyuruvchilarni jalb qilish bilan birga o’zlarining tabiiy resurslarini saqlab qolish zarurligini tan oldilar. Sayyohlik yo’llari yoki yovvoyi tabiatni muhofaza qilish loyihalari kabi ekologik toza tadbirlarni targ’ib qilish orqali yo’nalishlar o’z atrof-muhitini himoya qilish va sayyohlarga noyob tajribalarni taqdim etishi mumkin.

Asosiy qism: Milliy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tarmoq shaklga ega. Bu mavzuda turli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo’lsa-da, ushbu ob’ekt yaxlitligicha yetarli chuqur o’rganilmagan.

Turizmni rivojlantirishda avvalo qilishimiz kerak bo’lgan asosiy vazifa bor. Bu ham bo’lsa aholini turizm savodxonligi oshirish. Bu masalada avvalgi tadqiqotlarimida aytib o’tganimizdek mahalla markazlarida (MFY), qoshida o’quv kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Markaz

⁴ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga 2-ilova. 2022 - 2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi. - <https://lex.uz/uz/docs/5841063>

qoshida turizm nazariyasi, xizmat ko'rsatishda sanitariya epidemalogiya talablari, og'zaki nutq madaniyatini o'stirish, turizm tashkiliy masalalar doirasida bilim va ko'nikmalarni berish shular jumlasidandir.

Qishloq joylarda xalqni ichki turizmga jalb qilishda dasturda keltirilgan:

- ta'lim muassasalari o'quvchilari;
- tashkilotlar xodimlari uchun;
- yetim bolalar, kam ta'minlangan oilalar farzandlari;
- nogironligi bo'lgan shaxslar;
- pensionerlar hamda urush va mehnat faxriylari;
- faol xotin-qizlar;
- mahalla faollari va yosh oilalarga tegishli tashkilotlar tomonidan to'lovlar bilan

bog'liq xarajatlarni qoplab berish tartibi doim ishlab turishini ta'minlash kerak.

Avvalo tadqiqotimiz davomida milliy turizm nima ekanligini tushinib olishimiz kerak. Yangi tahrirdagi turizm to'g'risidagi qonunda umumiy tushinchalar bo'limi ta'rifini tahlil qiladigan bo'lsak kirish turizmi, chiqish turizmi va ichki (mahalliy) turizmlar uchun nazariy ta'rif berilgan. Milliy turizmni nazariy ta'rif berilmaganligini inobatga olib tadqiqot nazariyasi sifatida muallif ta'rifini ishlab chiqdik.

Milliy turizm: mahalliy turizm va chiqish turizmini o'z ichiga oladi, ya'ni rezident tashrif buyuruvchilarning ichki yoki tashqariga sayyohlik faoliyatini bir qismi sifatida ma'lum mamlakat ichida va undan tashqaridagi faoliyatidir.

Turizm sanoatida ichki turizm tarmog'ining sub'ektlari o'rtasida, makro va mikro iqtisodiy komponentlarni qo'shgan holda iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilishni nazarda tutadi. "Boshqaruv" terminini kiritish ushbu mexanizmning nazariy hamda amaliy yo'nalganligini anglatadi, chunki ichki turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi boshqaruv vazifalarni hal qilishga ham qaratilgan bo'lishi mumkin.

"Boshqaruv" tushinchasi keng ma'noli tushinchadir. U turistik faoliyatni ekstensiv kengaytirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini optimallashtirilgan holda, turistik faoliyatni jadallashtirishni ham nazarda tutadi. Ichki turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi rivojlanishning maqsadlari bilan chambarchas bog'langan. Ushbu mexanizm va uning samaradorligi rivojlanishning ma'lum maqsadlariga bog'liqdir.

Ichki turizmni rivojlantirish maqsadlari turistik faoliyat muhitining tashqi va ichki omillarga bog'liq. Ichki turizmning tashqi muhit omillari zamonaviy, shiddat bilan o'zgarayotgan iqtisodiy muhitda o'zgarib turganligi sababli, bu tashkiliy-iqtisodiy mexanizm uni boshqa muayyan maqsadlardan ajratib turuvchi bir qator tizimli xususiyatlarga ega. U rivojlanishning o'zgarib turuvchi talab va maqsadlari sharoitlarida o'zining asosiy funksiyalarini bajarish imkoniga ega bo'lishi, shuningdek, tashqi muhit o'zgarishlarga uchraganda o'z ish parametrlarini saqlab qolish zarur.

Milliy turizmni boshqarishda bir qancha tamoyillar ishlab chiqilgan bo'lib quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

1-Jadval.

Milliy turizmni boshqarish prinsiplari

Reja	Tamoyillari	Vazifalar
Strategik rejalashtirish va reja ishlab chiqish	Samarali turizmni rivojlantirish	Menejmentning roli: Turizm menejerlari
Boshqaruvda barqarorlik	Barqaror	Boshqaruv vazifasi: Turi
Marketing va reklama	Ta'sir	Menejer vazifasi: Menejerlar
Muvofiqlashtirish va hamkorlik	Raqam	Boshqaruv vazifasi: Integratsiya
Inson resurslarini rivojlantirish	Malakali kadrlar tayyorlash	Boshqaruv vazifasi: Turizm bo'yicha mutaxassislar
Infratuzilmani rivojlantirish	Infratuzilma	Boshqaruv vazifasi: Turizm infratuzilmasi
Iqtisodiy ta'sir va resurslarni taqsimlash	Hukumat	Boshqaruv vazifasi: Ishlab chiqilgan qaror va farmonlar
Ijtimoiy va madaniy	Madaniyat	Boshqaruv vazifasi: Sayohat
Risklarni boshqarish	Investitsiya	Boshqaruv vazifasi: Monitoring va baholash

Milliy turizmni samarali boshqarish turli tamoyillar va rollarni o'zida mujassam etgan uyushgan, strategik yondashuvni talab qiladi. Quyida ta'kidlangan tamoyillar va boshqaruv rollari milliy turizmning rivojlanishi va barqarorligi uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

1. Strategik rejalashtirish va siyosatni ishlab chiqish turizmni samarali rivojlantirish puxta o'ylangan rejalarga tayanadi.

Turizm menejerlari bilim va malakalarini oshirish, boshqaruvda milliy maqsadlarga mos keladigan strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Turizmni rivojlantirish barqaror, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarni bir biriga bog'lash kerak.

Turizm menejerlari turistik tashabbuslar salbiy ta'sirlarni minimallashtiradigan va mahalliy jamoalar va ekotizimlar uchun maksimal foyda keltiradigan barqaror amaliyotlarni qabul qilishni ta'minlaydi.

3. Samarali marketing sayyohlarni jalb qilish va turizm destinatsiyalarini reklamasi muhimdir.

Menejerlar mamlakatning turizm marketingini samarali targ'ib qiluvchi ta'sirchan marketing strategiyalarini yaratish uchun rejalar ishlab chiqishi kerak.

4. Samarali hamkorlik barcha manfaatdor tomonlarning umumiy turizm maqsadlari sari ishlashini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Menejerlar, turizm biznesi sub'ektlari va mahalliy jamiyat o'rtasidagi aloqa va hamkorlikni yaxlit va uyg'unligini ta'minlaydi.

5. Yuqori sifatli turizm xizmatlarini taqdim etish uchun malakali kadrlar zarur.

Turizm menejerlari xodimlarni tajribasini va mamlakatning turizm sanoatini yaxshilash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar, o'qitish va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqishi kerak.

6. Infratuzilmani qo'llab-quvvatlash va turistlar uchun ajoyib sayohatlarni taqdim etish uchun asosdir.

Turizm menejerlari turizm rivojlanishi uchun zarur bo'lgan muhim infratuzilmani, shu jumladan transport, turar joy va diqqatga sazovor joylarni rivojlantirish, texnik xizmat ko'rsatish va takomillashtirishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

7. Iqtisodiy ta'sir va resurslarni taqsimlash turizmni milliy iqtisodiyotga muhim hissa qo'shuvchi hisoblanadi va maksimal foyda olish uchun samarali boshqarilishi kerak.

Menejerlar resurslarni samarali taqsimlash, turizmdan olingan daromadlarni sektor va iqtisodiyotga foyda keltirish uchun qayta investitsiya qilinishini ta'minlash uchun javobgardir.

8. Ijtimoiy va madaniy jarayonlar turizm barqaror bo'lishi uchun mahalliy madaniyatlar, an'analar va aholining turizm savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi.

9. Risklarni boshqarish va inqirozga tayyorgarlik xatarlarni proaktiv boshqarish turizmning tabiiy ofatlar yoki siyosiy beqarorlik kabi jarayonlarga bardosh bera olishini ta'minlash.

Ushbu izohda turizmni boshqarish tamoyillari va milliy turizm sektorini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashda turizm boshqaruvida asosiy rollar keltirib o'tilgan. Asosiy e'tibor uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlash uchun strategik rejalashtirish, barqarorlik va muvozanatli yondashuvga qaratilgan.

Xulosa: Mahalliy turizm iqtisodiy rivojlanish, madaniyatni saqlash, madaniyatlararo almashinuv va jamoalar ichida barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish orqali u sayyohlarga ham, mahalliy aholiga ham joyning o'ziga xosligini qadrlash imkonini beradi. Biroq, potentsial muammolarni hal qilish va barcha ishtirokchilar uchun ijobiy va barqaror turizm tajribasini ta'minlash uchun ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va boshqarish zarur.

Turizmni boshqarishda tashkiliy mexanizmning yagona tizim sifatida uning milliy turizmdagi funksiyalarini amalga oshirish uchun asos bo'lib qizmat qiladi. Milliy turizmni rivojlantirishda bu funksiyalar asosiy vazifani bajaradi. Biroq, mahalliy turizm bilan bog'liq ba'zi muammolar ham mavjud. Mashhur sayyohlik joylarida odamlarning haddan tashqari ko'pligi transport tizimlari yoki chiqindilarni boshqarish ob'ektlari kabi infratuzilma va resurslarni ko'payishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, agar turizm to'g'ri boshqarilmasa, mahalliy aholining kundalik hayotini buzishi yoki ma'lum hududlarda gentrifikatsiyaga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari:

1. Рустамович, ДБ (2020). Анализ развития туризма в Узбекистане. *Журнал международных бизнес-исследований и маркетинга*, 5 (6), 28-33.

2. Rustamovich, D. B. (2023). Financing Domestic Tourists And Export Of Tourism Services. *Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya*, 2, 35-37.

3. Очилова, Х. Ф. (2020). Мухаммадсидик Амонбоев, and Бурхон Рустамович Дехконов. "Развитие внутреннего туризма для восстановления отрасли после пандемии." *Заметки ученого*, 12, 242-247.

4. Очилова, Х. Ф., Амонбоев, М., & Дехконов, Б. Р. (2020). Развитие внутреннего туризма для восстановления отрасли после пандемии. *Заметки ученого*, (12), 242-247.